



UCH SHOXLI NERV NEVRALGIYASIDA YUZNING REKANSTRUKTIV
JARROHLIK AMALIYOTLARI

Sayfullayev Akmal Karimovich

Tibbiyot fakulteti umumiy tibbiyot kafedrası o'qituvchisi

Raxmanova Guzalxon Erkinovna

Navoiy davlat universiteti davolash ishi yo'nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Uch shoxli nerv nevrалgiyasi (trigeminal neuralgia) yuz sohasida kuchli paroksizmal og'riqlar bilan namoyon bo'ladigan surunkali nevrologik kasallik hisoblanadi. Ushbu patologiya ko'pincha nerv ildizchasining qon tomirlari tomonidan kompressiyasi natijasida yuzaga keladi. Kasallik asosan o'rta va katta yoshdagi shaxslarda uchraydi va bemorning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. Maqolada uch shoxli nerv nevrалgiyasining etiologiyasi, klinik belgilari, diagnostikasi va zamonaviy jarrohlik davolash usullari, jumladan mikrovaskulyar dekompressiya va radiochastotali denervatsiya usullari ko'rib chiqilgan. Ushbu davolash usullari og'riqni kamaytirish va nerv funksiyasini tiklashda yuqori samaradorlikka ega.

Kalit so'zlar: uch shoxli nerv nevrалgiyasi, trigeminal neuralgia, nervus trigeminus, mikrovaskulyar dekompressiya, radioto'lqinli denervatsiya, yuz og'rig'i, nevrалgiya, neyroxirurgiya, nerv kompressiyasi, yuz nervlari kasalliklari.

Аннотация: Тригеминальная невралгия (trigeminal neuralgia) является хроническим неврологическим заболеванием, проявляющимся сильными пароксизмальными болями в области лица. Данная патология чаще всего развивается вследствие компрессии корешка тройничного нерва кровеносными сосудами. Заболевание преимущественно встречается у лиц среднего и пожилого возраста и значительно снижает качество жизни пациента. В статье рассмотрены этиология, клинические проявления, диагностика и современные хирургические методы лечения тригеминальной невралгии, включая микрососудистую декомпрессию и радиочастотную



денервацию. Эти методы лечения обладают высокой эффективностью в снижении болевого синдрома и восстановлении функции нерва.

Ключевые слова: невралгия тройничного нерва, *trigeminal neuralgia*, *nervus trigeminus*, микрососудистая декомпрессия, радиочастотная денервация, лицевая боль, невралгия, нейрохирургия, компрессия нерва, заболевания лицевых нервов.

Annotation: *Trigeminal neuralgia is a chronic neurological disorder characterized by severe paroxysmal pain in the facial region. This condition most commonly develops as a result of compression of the trigeminal nerve root by blood vessels. The disease primarily occurs in middle-aged and elderly individuals and significantly reduces the patient's quality of life. This article discusses the etiology, clinical manifestations, diagnostic methods, and modern surgical treatment options for trigeminal neuralgia, including microvascular decompression and radiofrequency denervation. These treatment methods are highly effective in reducing pain and restoring nerve function.*

Keywords: *trigeminal neuralgia, nervus trigeminus, microvascular decompression, radiofrequency denervation, facial pain, neuralgia, neurosurgery, nerve compression, diseases of the facial nerves.*

Uch shoxli nerv (*nervus trigeminus*) bosh miya nervlarining beshinchi jufti bo'lib, yuzning asosiy sezuvchi nervi hisoblanadi. Ushbu nerv miya ustunidan chiqib, uchta asosiy shoxga bo'linadi: *nervus ophthalmicus*, *nervus maxillaris* va *nervus mandibularis*. Uch shoxli nerv nevralgiyasi – yuzning bir tomonida o'tkir xurujsimon og'riqlar:

- yuzda kuchli, qisqa muddatli og'riq xurujlari;
- og'riqli chaynash, gapirish, tegish yoki sovuq ta'sirida paydo bo'lishi bilan namoyon bo'luvchi kasallik.

Uch shoxli nerv nevralgiyasi ko'p uchraydigan kasalliklar sirasiga kiradi. Kasallanish 100000 aholi soniga yiliga 4 kishini tashkil qiladi. Kasallik, asosan, yoshi kattalarda, ya'ni 40–60 yoshlarda ko'p uchraydi. Uch shoxli nerv nevralgiyasi, ko'pincha yuzning o'ng tomonida (70%), kam hollarda uning chap tomonida (30%)



kuzatiladi. Uch shoxli nerv nevrалgiyasi — nerv yallig‘lanishi emas, balki nerv irritatsiyasi yoki kompressiyasi bilan bog‘liq og‘riq sindromi, yuzga va bo‘yinga tarqaladigan, hatto minimal sensor stimullar bilan qo‘zg‘aladigan yuz og‘rig‘ining eng keng tarqalgan turidir. Og‘riqning og‘ir kechishi tufayli bemorlar ko‘pincha dori bilan davolash natija bermagan hollarda neyroxirurgik va rekonstruktiv jarrohlik amaliyotlariga murojaat qilishadi. Rekonstruktiv jarrohlikning vazifasi asab funksiyasini tiklash, og‘riqni kamaytirish va yuz simmetriyasini saqlab qolishdan iborat.

Burun atrofi bo‘shliqlari shamollashlari (gaymorit, frontit), tish kasalliklaridan so‘ng ham ko‘pchilikda nevrалgiya rivojlanadi. Uch shoxli nerv joylashgan joyda bosh miya qon tomirlari ham o‘tadi. Agar ushbu qon tomirlari uch shoxli nervni bosib qo‘ysa ham nevrалgiya rivojlanadi. Arteriyaning patologik cho‘zilishi va shu sababli uch shoxli nervning bosilib qolishi uzoq davom etuvchi qon bosimi bilan bog‘liq. Qandli diabet bilan kasallanganlar va uzoq yillar spirtli ichimlik iste‘mol qilganlarda ham uch shoxli nerv nevrалgiyasi uchrab turadi.

Jarrohlik uslubida davolash:

Hozirgi kunda zamonaviy tibbiyotda ikki xil uslubdagi jarrohlik amaliyotlari keng tarqalgan.

Uch shoxli nerv ildizining mikrovaskulyar dekompressiyasi. Ushbu jarrohlik uslubida orqa bosh suyagi asosi chuqurchasi trepanatsiyasi amalga oshiriladi. Uch shoxli nerv ildizchalari, yuqori va pastki oldingi miyacha arteriyalari va yuqori toshsimon vena reviziyasi amalga oshiriladi. Nerv ildizchasi qon tomirlar tomonidan bosilishi aniqlangan holatda maxsus teflon pad qo‘yiladi va nerv ildizchasi bosilishiga barham beriladi.

Biroq nerv va qon tomir kompressiyasi har doim ham kasallikning sababi hisoblanavermaydi, bundan tashqari og‘ir somatik patologiyaga chalingan va keksa yoshli bemorlarda ushbu jarrohlik amaliyotini o‘tkazishni imkoni bo‘lmaydi.

Bunday holat bemorlar uchun ikkinchi uslub qo‘llaniladi. Bu hozirgi kunda dunyoning yetakchi neyrojarrohlik klinikalarida keng qo‘llanilib kelinayotgan uch shoxli nerv nevrалgiyasini radioto‘lqinli denervatsiya qilish uslubi hisoblanadi



Bu uslub eng samarali, boshqariluvchan va jiddiy asoratga ega bo'lmagan uslub hisoblanib, bunda hech qanday tig'iz va narkozsiz kichkina 3 mm lik oval teshigi orqali neyrojarrohlar maxsus elektrod yordamida kerakli joyga yetib borishadi va bemor bilan muloqot qilgan holda uch shoxli nervning zaruriy shoxini topib, radioto'lqin yordamidan uch shoxli nervning faqat og'riq bo'layotgan shoxining sezuvchanligi pasaytiriladi.

Jarrohlik amaliyotining barcha bosqichi rentgen nazorati ostida o'tkaziladi va hech qanday jiddiy asoratga ega emas. Bemorga shu kunning o'zida uyiga ruxsat beriladi.

Bugungi kunda tibbiyot uch shox nervning nevrалgiyani davolash uchun keng konservativ va jarrohlik usullariga ega. Neyroxirurglar hali ham mavjud bo'lgan jarrohlik muolajalarini takomillashtirishda davom etadilar, bemor uchun xavfsiz bo'lgan, og'riqni abadiy engillashtiradigan ideal jarrohlik operatsiyasiga intilishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. F.N.Bahodirov "Odam anatomiyasi"
2. Axmedov A.A., Xasanov Sh.Sh. Neyroxirurgiya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2021. – 320 b.
3. Karimov M.K., Rasulov N.R. Nerv tizimi kasalliklari va ularning davolash usullari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020. – 280 b.
4. Gray G. Odam anatomiyasi (tarjima nashri). – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020. – 1200 b.
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Nevrologik kasalliklar bo'yicha qo'llanma. – Toshkent: JSST nashri, 2020. – 200 b.
6. Toshkent tibbiyot akademiyasi. Nevrologiya va neyroxiirurgiya fanidan o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023. – 250 b
7. Sayfullaev, A. K., Sharipova, A. M. (2026). Novel approaches in stroke prevention and treatment in contemporary neurology, 16(2) 478-486



8. Sayfullaev, A. K., Axmedova, Sh. J. (2026). Пластика кончика носа: анатомические и функциональные аспекты, современные методики реконструкции и клинические результаты. 60(2), 297-310
9. Sayfullaev, Akmal Karimovich; Atamuratova, Asila Toir kizi (2025). Blepharoplasty (eyelid plastic) – theoretical basis, technique and complications. 3(12), 228-232
10. <https://dmclinic.uz/uch-shox-nervning-nevralgiyani-davolash>